

TOLIBLAR VA AFG'ONISTON HUKUMATI O'RTASIDA HAMKORLIK JARAYONLARINING BOSHLANISHI (DOHA KELISHUVLARI MISOLIDA)

Qalandarov O'lmas Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajor-tadqiqotchisi

Annotatsiya. «Tolibon»ni Afg'oniston hukumati va boshqa afg'on rahbarlari bilan birinchi marta siyosiy kelishuvga erishish uchun to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni boshlashga majbur qildi. Qatarda 20 yillik urushga chek qo'yish uchun muzokaralar boshlandi

Kalit so'zlar: AQSh, Tolibon, Afg'oniston, Doha, NATO

THE BEGINNING OF COOPERATION PROCESSES BETWEEN THE TALIBAN AND THE AFGHAN GOVERNMENT (IN THE EXAMPLE OF THE DOHA AGREEMENTS)

Qalandarov Ulmas Faxriddin ugli

Intern researcher at Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation. *The Taliban forced the Afghan government and other Afghan leaders to begin direct negotiations to reach a political agreement for the first time. Negotiations began in Qatar to put an end to the 20-year war*

Keywords: USA, Taliban, Afghanistan, Doha, NATO

So'nggi vaqtlarda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasida yangi ijobiy jarayonlar paydo bo'lmoqda. Xususan, AQSh va "Tolibon" harakati o'rtasida tarixiy tinchlik shartnomasi imzolandi. Oxirgi 20 yilda ikkinchi marotaba muqaddas Ramazon oyi munosabati bilan uch kunlik o'q otishni to'xtatish e'lon qilindi. Rasmiy Kobul va toliblar o'rtasida o'zaro mahbuslarni ozod etish davom etmoqda. Uzoq vaqt mobaynidagi beqarorlikdan so'ng Afg'onistonda siyosiy inqirozga barham berildi, Ashraf G'ani va Abdulla Abdulla o'rtasida hokimiyat taqsimoti bo'yicha kelishuv imzolandi. O'nlab yillar davom etgan mojaro yechimini topdi, deyishga hali erta, ammo mazkur muammoning hal etilishiga umid qilish uchun asoslar mavjud. Xususan, 40 yillik urushdan so'ng millionlab afg'onlar uchun o'zaro nizolarni hal etish va tinch hayotga o'tish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg'onistondagi urushni to'xtatish uchun bir necha bor urinishlar bo'lgan.

2018 yil mart oyida Afg'oniston bo'yicha bo'lib o'tgan Toshkent xalqaro konferensiyasi afg'on yo'nalishida tinchlik sa'y-harakatlarini qayta ko'rib chiqilishida hal qiluvchi rolni o'ynadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shaxsan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu anjuman jahon hamjamiyati e'tiborini Afg'oniston Islom Respublikasida davom etayotgan urushga yana bir bor qaytardi.

Toshkent konferensiyasida Afg'oniston taqdiriga befarq bo'lmagan barcha davlatlarning tashqi ishlar vazirlari, Afg'oniston prezidenti Ashraf G'ani va yuqori martabali diplomatlar

ishtirok etdi. Anjuman yakunida Afg'onistonda tinchlik o'rnatishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Yana ham aniqroq aytganda, mamlakatda tinchlikni o'rnatish strategiyasi bo'yicha ishtirokchilar tomonidan kelishuvga erishildi. Aslini olib qaraganda, afg'on muammosini hal etishda ishtirok etayotgan barcha davlatlar Afg'onistonda tinchlikka faqatgina qurollarni tashlab, afg'on siyosiy kuchlari o'rtasida keng muloqotni boshlash orqali erishish mumkinligi to'g'risidagi fundamental g'oyani tushunishdi. Bundan tashqari, aynan o'zbek zaminida bo'lgan uchrashuvdan so'ng Afg'onistonni mintaqaviy hamkorlik platformasiga aylantirish va geosiyosiy raqobatning avj olgan sahnasi sifatida qabul qilmaslik lozimligi to'g'risida keng tushuncha shakllandi. Toshkent konferensiyasi va O'zbekiston rahbariyatining afg'on mojarosini tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlari alohida ahamiyatga ega ekanini tasdiqlash uchun Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'aning shu yilning mart oyi oxirlarida aytgan quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchiman: "Ikki yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan o'tkazilgan Afg'oniston bo'yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi muhim voqea afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etish uchun siyosiy jarayonni boshlash, manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro muloqotning maqbul shakllari va mexanizmlarni qidirishda boshlang'ich nuqta bo'ldi".

Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi keyingi muhim bosqich – 2020 yilning 29 fevralida Qatar poytaxti Dohada AQSh va "Tolibon" harakati o'rtasida tinchlik bitimi imzolanishi bo'ldi. **Aljazeera** xabarida aytilishicha, bitimni imzolash marosimida o'ttizdan ortiq davlat, xususan, O'zbekiston, Rossiya, Pokiston, Hindiston, Indoneziya va Tojikiston vakillari ishtirok etdi. Uzoq muzokaralar ortidan imzolangan bitimga muvofiq AQSh va NATO qo'shinlari 14 oy davomida Afg'onistondan olib chiqiladi. Ayni payt Afg'onistonda AQShning 13 ming va NATOning 17 ming atrofida askari bor. Birinchi bosqichda amerikalik askarlar soni 8600 nafarga tushiriladi. Bundan tashqari, "Tolibon" harakatining 5 ming ming a'zosi qamoqdan ozod qilinadi. Toliblar Afg'onistonda AQSh va uning ittifoqchilariga hujum qilmaslik majburiyatini oldi⁶.

Afg'onistondagi urush nega bu qadar uzoq davom etayotgani to'g'risida turli xil fikrlar bildirilib kelmoqda. Bunga "Tolibon"ning keskin qarshilik ko'rsatishi, Afg'oniston hukumati kuchlari va boshqaruvining cheklangani hamda boshqa mamlakatlarning qo'shinlari ushbu mamlakatda uzoq vaqt ushlab turishni istamasligi sabab bo'layotgani aytilmoqda. BBC Umumjahon xizmatining bir maqolasida mabodo jangarilar kelishuvga amal qiladigan bo'lsa, AQSh bilan uning NATOga a'zo ittifoqchilari 14 oy ichida Afg'onistondan barcha qo'shinlarini olib chiqib ketishga rozi ekani aytiladi. Shu munosabat bilan AQSh prezident Donald Tramp Afg'onistondagi "uzoq safar"dan qo'shinlarini uyga qaytarmoqchi ekanini ma'lum qildi. Uning fikricha, "Tolibon" harakati uzoq vaqtdan beri AQSh bilan bitimga erishishga harakat qilib kelgan⁷.

Shu paytgacha AQSh qo'shinlari minglab jangarilarni o'ldirgan, "endi bu ishni boshqalar qiladigan vaqt keldi, bu "Tolibon" yoki Afg'onistonni o'rab turgan boshqa mamlakatlar bo'lishi mumkin"ligini aytgan prezident "Tolibon" "haddidan oshadigan bo'lsa", qo'shinlar

⁶ <https://www.aljazeera.com/news/2020/3/1/hard-to-trust-afghans-sceptical-of-us-taliban-agreement>

⁷ <https://www.bbc.com/news/world-asia-51689443>

yana ushbu mamlakatga qaytishi mumkinligidan ham ogohlantirdi. AQSh 2001 yil sentyabrda "Al-Qoida" guruhi Nyu-Yorkda hujum uyushtirgandan so'ng oradan bir necha hafta o'tib, Afg'onistonga qo'shin kiritgan edi. Ushbu urush davomida AQShning 2400 dan oshiq harbiy xizmatchisi halok bo'ldi, 12 mingdan oshig'i esa afg'on tuprog'ida qolmoqda.

Qatar poytaxtida bitimni AQShni Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Zalmay Xalilzod va "Tolibon"ning siyosiy masalalar bo'yicha rahbari mulla Abdulg'ani Birodar imzoladi. Imzolash marosimida AQSh davlat kotibi Mayk Pompeo hozir bo'ldi va u toliblarni "Al-Qoida" bilan aloqalarni uzish haqidagi va'dasini bajarishga chaqirdi. Ayni choqda AQSh mudofaa vaziri Mark Esper Afg'oniston prezidenti Ashraf G'ani bilan muzokara o'tkazdi.

Bitimga ko'ra, dastlabki 135 kunda AQSh Afg'onistondagi harbiy xizmatchilari sonini 8600 kishigacha qadar qisqartiradi. Bu Trampning noyabrdagi saylov oldidan qo'shinlarni Vatanga qaytarayotganini namoyish qilishi uchun muhim ahamiyatga ega. 2020 yilning 1 martiga qadar 5000 nafar "Tolibon" mahbusi va 1000 nafar Afg'oniston xavfsizlik kuchlari mahbusini o'zaro almashish bo'yicha muzokara boshlanishi kerak. AQSh "Tolibon"ga qarshi sanksiyalarini bekor qiladi hamda harakatga qarshi BMT joriy etgan alohida sanksiyalarni bekor qilish bo'yicha ushbu tashkilot bilan ish olib boradi.

Afg'onistondagi ayollar huquqini himoya qiluvchi faollar ayni bitimdan va toliblarning hokimiyatga qaytishidan xavotirga tushmoqda. Ekspertlar fikricha, "ushbu jarayon toliblar uchun ham, Afg'onistonning sobiq yetakchi veteranlari uchun ham, so'nggi 20 yil ichida tug'ilib o'sgan hamda boshqa kelajakni orzu qilayotgan yangi avlodi ham uchun sinov bo'ladi". Qayd etish joizki, garchi 2011 yildan beri Qatarda AQSh bilan "Tolibon" rahbarlari o'rtasida tinchlik bitimi tuzish yuzasidan 9 marta muzokara o'tkazilgan bo'lsa-da, toliblar yetakchilari Afg'oniston hukumati bilan muzokara qilishga unamadi. Muzokaralar bilan bir qatorda koalitsiya kuchlari va Afg'oniston xavfsizlik kuchlari bilan toliblar o'rtasida to'qnashuvlar ham yuz berib turdi⁸.

2001 yildan beri davom etayotgan urushda Afg'oniston tinch aholisi, jangarilar va hukumat qo'shinlaridan qancha kishi halok bo'lganini hisoblab chiqish qiyin. BMTning 2019 yil fevralida e'lon qilingan hisobotida 32 ming tinch aholi qurbon bo'lgani aytiladi. Braun universitetining Uotson instituti hisob-kitobicha, 58 ming havfsizlik xodimi va 42 ming muxolifat jangchisi halok bo'lgan. Afg'onistondagi urush nega bu qadar uzoq davom etayotgani to'g'risida turli xil fikrlar bildirilib kelmoqda. Bunga "Tolibon"ning keskin qarshilik ko'rsatishi, Afg'oniston hukumati kuchlari va boshqaruvining cheklangani hamda boshqa mamlakatlarning qo'shinlari ushbu mamlakatda uzoq vaqt ushlab turishni istamasligi sabab bo'layotgani aytilmoqda. Shular qatorida yana bir omil - Pokiston toliblarni qo'llab-quvvatlab turganini ham esdan chiqarib bo'lmaydi. "Qo'shma Shtatlar bilan "Tolibon" imzolagan bitim tafsilotlari."⁹

"Reyter" agentligining nomi sarlavhada keltirilgan maqolasida Qo'shma Shtatlar bilan "Tolibon" isyonchilari chet el qo'shinlarini Afg'onistondan to'liq olib chiqish va 18 yillik

⁸ <https://www.reuters.com/article/us-usa-afghanistan-taliban/u-s-and-taliban-sign-troop-withdrawal-deal-now-comes-the-hard-part-idUSKBN20N06R>

⁹ <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>

urushga barham berishga yo'l ochishi mumkin bo'lgan bitimni imzolagani tafsilotlari keltiriladi.

Bitimda AQSh va NATO qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqish, "Al-Qoida"ning Afg'oniston zaminidan turib AQSh va unga ittifoqchi mamlakatlarga tahid etishiga yo'l bermaslik, toliblarning Afg'oniston hukumati bilan tinchlik o'rnatish bo'yicha muzokara boshlashi, AQShning "Tolibon"ga nisbatan joriy qilgan sanksiyalarini bekor qilish shart qilib qo'yilgan. Ekspertlar afg'onlararo muzokara juda qiyin kechishini, chunki shu paytgacha unda Afg'oniston hukumati chetlab o'tilganini aytmoqda. Masalaning boshqa bir murakkab jihati ham bor: o'tgan yili bo'lib o'tgan prezident saylovi natijalarini amaldagi prezident Ashraf G'aniga raqib bo'lgan Abdulla Abdulla tarafdorlari tan olmayapti. Shuning uchun hukumat tarafidan muzokarada kim qatnashishi aniq emas.

"Biz, toliblar, nimani istayapmiz - Modomiki, biz chet ellik dushman bilan bitimga erishayotgan ekanmiz, muzokaralar yordamida afg'onlararo kelishmovchiliklarni ham bartaraf etishimiz shart", deb yozadi Haqqoniy. "Tolibon" rahbari muovini Sirojiddin Haqqoniyning "Nyu-York Tayms" gazetasida chot etilgan maqolasida "odamlarni o'ldirish va mayib qilish to'xtatilishi kerakligiga ishonchim komil", deyiladi.

Aytishicha, "Tolibon" harakati bilan 2018 yilda muzokara boshlagan bo'lsa-da, 18 yillik urushdan so'ng uning biror natija berishiga ishonmagan, chunki oldingi bir necha urinishlar natija bermagan. "Biz tinchlikka erishish uchun har qanday potensial imkoniyatni – garchi u juda kam natija bersa-da – boy berishni nodonlik bo'ladi, deb hisobladik. 40 yildan oshiq vaqtdan beri har kuni afg'onlar qimmatli hayotidan ayrilmoqda. Har bir kishi yaxshi ko'rgan odamini yo'qotdi. Hamma urushdan charchagan. Odamlarni o'ldirish va mayib qilish to'xtatilishi kerakligiga ishonchim komil", deb yozadi u.

Muallif fikricha, toliblar urushni tanlamagan, mamlakatga bostirib kirgan chet el qo'shinlariga kurashishga majbur bo'lgan, hamkasblari 18 oy davomida amerikaliklar bilan tinimsiz muzokaralar olib borgan, hatto prezident Tramp muzokarani to'xtatib qo'ygan paytda ham eshikni ochiq qoldirgan. U yana Afg'oniston ichkarisi va tashqarisida yangrayotgan, chet el qo'shinlari olib chiqib ketilgandan so'ng mamlakatni qanday hukumat boshqaradi, degan savolga javob berar ekan, bu afg'onlar o'rtasidagi murosaga bog'liq bo'lishini aytadi.

"Hech kim ushbu jarayonni oldindan belgilab qo'yilgan natijalar va dastlabki shartlar bilan to'ldirib tashlamasligi muhim. Biz boshqa tomonlar bilan yangi va barchani qamrab oluvchi siyosiy tizim yaratish yo'lida o'zaro maslahatlashuv va chuqur hurmat bilan hamkorlik qilishga tayyormiz, o'sha tizimda har bir afg'onning ovozi aks etishi va hech bir afg'on o'zini chetda qoldim, deb hisoblamasligi muhim", deya ta'kidlaydi Haqqoniy. Muallif maqolada Afg'onistonning urushdan so'nggi kelajagi, tashqi dunyo bilan aloqalari, mamlakatda barchaning tenhuquqligini, ayollarning esa islomda belgilab qo'yilgan huquqini ta'minlash, chet ellarda qochqinda yurgan vatandoshlarni yurtga qaytarish masalalarini ham tilga oladi. Yana u umumiy kelajakni aniqlab olish uchun Afg'onistondagi turli guruhlar hamkorlik qilishi kerakligini ta'kidlar ekan, "bunga ishonchim komil. Modomiki, biz chet ellik dushman bilan

bitimga erishayotgan ekanmiz, muzokaralar yordamida afg'onlararo kelishmovchiliklarni ham bartaraf etishimiz shart", deb yozadi¹⁰.

"Agar "Tolibon" qaytadigan bo'lsa, afg'on ayollari hamma narsadan: 18 yil davomida erishilgan yutuqlar va hatto - kimligidan ayriladi. Agar toliblar oldin mamlakatni boshqargan vaqtdan beri fikrini o'zgartirmagan bo'lsa, afg'on ayollari asosiy jabrdiyda bo'lib qolaveradi", dedi Husayniy. "Al-Jazira" telekompaniyasi jurnalisti Shirina Qoziyning zikr etilgan maqolasida AQSh bilan "Tolibon"ning bitimga erishishi Afg'onistondagi ayollar huquqi taqdiri xavf tug'dirmaydimi, degan savolni o'rtaga tashlaydi. Shanba kuni Qatar poytaxti Dohada erishilgan bitimda chet el qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish, "Tolibon" bundan buyon AQSh va ittifoqchilari xafsizligiga tahdid qiladigan chet el qurolli guruhlarga yo'l bermasligiga kafolat berish singari masalalarni qamrab oladi. Garchi bitimda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va'da qilingan bo'lsa-da, 27 yashar Maryam Husayniy haligacha opasi Najibaning o'limiga aza tuta yotgani aytiladi maqolada.

Hindiston va Yaponiyada o'qib kelgan Najiba 2017 yili Kobulda davlat xizmatchilarini olib ketayotgan avtobusga "Tolibon" hujum qilishi oqibatida halok bo'lgan edi. Toliblar yuzlab gunohsiz kishilarni o'ldirgani uchun afsus ham qilgani yo'q, - deydi Husayniy. BMTning Afg'onistonga yordam berish missiyasi hisob-kitobicha, so'nggi 10 yildan ko'proq vaqt mobaynida 100 ming kishidan oshib ketdi. "Tolibon" vakillari 18 oylik sa'y-harakatlardan so'ng erishilgan tinchlik bitimini o'zining "g'alabasi" deb atay boshladi. O'sha tadbirda qatnashgan AQSh davlat kotibi Mayk Pompeo harakat vakillarini Afg'onistonda tinchlik o'rnatishga chaqirdi.

Afg'onistondagi ayollar huquqi faollari toliblarning hokimiyatga kelishidan va ayollar huquqini poymol qilishidan tashvish bildirmoqda. - Agar "Tolibon" qaytadigan bo'lsa, afg'on ayollari hamma narsadan: 18 yil davomida erishilgan yutuqlar va hatto identiteti - kimligidan ayriladi. Agar toliblar oldin mamlaktani boshqargan vaqtdan beri fikrini o'zgartirmagan bo'lsa, afg'on ayollari asosiy jabrdiyda bo'lib qolaveradi, - dedi Husayniy. "AQSh bilan "Tolibon" qo'shinlarni olib chiqish bitimini imzoladi; ishni og'ir qismi endi boshlanadi". "Tolibon" bilan muzokara qilishdan oldin Afg'onistonning ikki yetakchi siyosiy raqibi - Ashraf G'ani bilan bosh vazir Abdullu Abdulla - isyonchilar bilan hukumatning qaysi a'zolari, muxolifat vakillari va faollari muzokara qilishi kerakligi haqidagi munozarani hal etib olishi kerak.

Abdulqodir Siddiqiy bilan Aleksandr Kornvell maqolasida afg'onalararo muzokaralar juda qiyin kechishi aytiladi. Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishish barcha tomonlarning sabr-qanoati va murosasini talab qiladi, AQSh mudofaa vaziri Mark Esperning so'zlaridan iqtibos keltiradi mualliflar. Afg'oniston prezidenti Ashraf G'ani "butun mamlakat to'liq otashkesimga ko'z tikib turgani"ni bildirdi. Mualliflar fikricha, Afg'oinstonda tinchlik o'rnatilishini faqat "Tolibon" yoki Afg'oniston hukumati rahbarlari emas, oddiy xalq ham chin dildan istayotganiga e'tibor qaratadi hamda Kobul chetida yashaydigan 38 yashar maktab o'qituvchisi Jovid Hasanning so'zlarini keltiradi: "Tinchlikka erishish juda oson va mamlakatim bunga munosib. Bugun biz ijobiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin bo'lgan kundir". Qayd etish joizki, Hasanning farzandlari 2018 yili "Tolibon" bomba portlatishi

¹⁰ <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>

vaqtida halok bo'lgan edi. Shundan beri u jahon mamlakatlari rahbarlariga urushni to'xtatishga da'vat qilib xatlar yozib keladi.

“Tolibon” bilan muzokara qilishdan oldin Afg'onistonning ikki yetakchi siyosiy raqibi – Ashraf G'ani bilan bosh vazir Abdullu Abdulla – isyonchilar bilan hukumatning qaysi a'zolari, muxolifat vakillari va faollari muzokara qilishi kerakligi haqidagi munozarani hal etib olishi kerak, deya xulosa yasaydi maqolaga mualliflar¹¹.

AQShning Afg'onistondagi qo'shinlari qo'mondoni general Ostin Miller jurnalistlarga “Tolibon” zo'rvonlikni kamaytirmaydigan bo'lsa, tinchlik jarayoni omonat bo'lib qolishini aytdi. “Los-Anjeles Times” gazetasida chop etilgan maqolada AQSh harbiy uchoqlari chorshanba kuni Afg'oniston janubidagi “Tolibon” jagchilariga zarba bergani ikki tomon imzolagan dastlabki tinchlik bitimini xavf ostiga qo'yishi qayd etiladi.

Gazetaning Afg'onistondagi AQSh qo'shinlari voizi, polkovnik Sonni Laggettga iqtibosan xabar qilishicha, Qo'shma Shtatlar uchoqlari Helmand viloyatining hukumat qo'shinlariga qarashli nazorat punktiga hujum qilgan jangarilarni nishonga olgan. Polkovnik bu amaliyotni “mudofaa zarbasi” deb atagan. AQShning Afg'onistondagi qo'shinlari qo'mondoni general Ostin Miller jurnalistlarga “Tolibon” zo'rvonlikni kamaytirmaydigan bo'lsa, tinchlik jarayoni omonat bo'lib qolishini aytdi. AQSh uchoqlari jangarilarga AQSh prezidenti Donald Tramp “Tolibon” rahbari bilan telefon orqali Afg'onistonda urushni to'xtatish haqida gaplashganidan so'ng oradan bir kun o'tib, hujum qildi. Bu AQSh qo'shinlari 2001 yil 11 sentyabrida Nyu-York va Vashingtonda ro'y bergan terrorchilik hujumidan beri Amerika prezidenti jangarilar harakati rahbarlaridan biri bilan birinchi muloqoti bo'ldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.aljazeera.com/news/2020/3/1/hard-to-trust-afghans-sceptical-of-us-taliban-agreement>
2. <https://www.bbc.com/news/world-asia-51689443>
3. <https://www.reuters.com/article/us-usa-afghanistan-taliban/u-s-and-taliban-sign-troop-withdrawal-deal-now-comes-the-hard-part-idUSKBN20N06R>
4. <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>
5. <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>
6. <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>

¹¹ <https://www.latimes.com/world-nation/story/2020-03-04/trump-taliban-peace-deal>